

## ANVAR OBIDJON ASARLARINING BOLALAR ADABIYOTIDAGI O'RNI

*Begoyim Minavvarova  
Sobirova Gulshoda*

*FarDU pedagogika va psixologiya talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolamizda nafaqat bolalar yozuvchisi, balki kattalarning ham sevimli hajvchi yozuvchisi Anvar Obidjon ijodi, asarlaridagi bolalarga xoslik haqida soʻz yuritamiz.

**Kalit soʻzlar:** Soddalik, ravonlik, hajviylik, tabiatga oshuftalik, “Juda qiziq voqea” kitobi, odob-axloq masalalari.

Oʻzbek adabiy muhitining yirik namoyondalaridan biri, bolalar hamda kattalar adabiyotining yetuk namoyondasi, Oʻzbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon sermazmun va takrorlanmas ijod faoliyatiga ega adibdir. Uning ayniqsa, bolalar adabiyotiga qoʻshgan hissasi alohida ahamiyatga egadir. Oʻzbek bolalar adabiyotining jonkuyar pirlaridan Tursunboy Adashboyev shunday yozadi: “80-yillarga kelib Anvar Obidjon bolalar sheʼriyatidagi ob-havoni bir yoʻla yangiladi. Uning “kosa tagida nimkosa” asarlari tilga tushdi”.[5. 11b] Ha, chindan ham Anvar Obidjon borliqqa – mavjudot-u maxluqotga, oy, quyosh, yulduzlarga, uzluksiz gʻimir-gʻimir harakatga bolaning maʼsum koʻzi bilan boqdi. Pishiq-puxta, umri uzoq asarlar yaratdi. Bolalar adabiyoti pirlari qatorida oʻz didi, tili, uslubi bilan joy oldi. Anvar Obidjon bolalar uchun qissa, drama, ertaklar yozgan. Adibning ijodiy faoliyati, yaratgan asarlari ilmiy jamoatchilikning ham hamisha eʼtiborida va eʼtirofida boʻlib kelgan, koʻplab ilmiy ishlar yozilgan. ”Oltin yurakli Avtobola”, “Meshpolvonning janglari”, “Alamazon va uning piyodalari” singari asarlari haqida alohida-alohida tadqiqotlar yaratish mumkin. Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qoʻshgan bebaho xazinasini – “Juda qiziq voqea” sheʼr va ertaklardan iborat kitobi ham yosh kitobxonlar adabiyotini boyitgan asarlardandir. Toʻplamdagi asarlar qahramonlari bobo dehqon, mirishkor bogʻbon yetishtirgan mahsulotlar, mevalar, parranda, darranda, hasharotlar, doʻppi-yu shlyapa, telefon-u shippak, choynag-u oynak, mugʻobir-u lofchi, ayoz-u gullola, quyosh-u jala, hayvonot, nabodot haqida.

Asar qahramonlari qoʻshiq aytadilar, hasbi hol soʻzlaydilar, maktub bitadilar, tavsif-u taʼrif beradilar. “ “Juda qiziq voqea”da goʻzal ohang, gʻaroyib mutanosiblik, turfa ranglar jilosi, ziddiyatlar kurashi, hayot mamot jangi tasvirlangan. “Dalalardan – bolalarga” bobida poliz ekinidan tortib mevalargacha oʻz tillaridan soʻzlab bolalarga maʼlumot berishadi, “Ajoyibxona” bobida esa, jonzotlar olamiga sayohat qilinadi. “Kulchalar”, “Siz eshitmagan qoʻshiqlar” va shu kabi qiziqarli oʻziga xos boplar borki, unda bolajon butun dunyo ajoyibotlari bilan tanishadi.[4] Yaratganning jamiki

yaratiqlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Ahamiyatli jihati Anvar Obidjon bu bilimlarni bola tili bilan sodda, ravon, hajviy yo'l orqali yozadi. Bu esa, bolalar adabiyoti xazinasining haqiqiy dur-u javohiri desak yanglishmagan bo'lamiz. Quyida adibimizning ushbu kitobidagi kichkinagina bir she'rini keltirib o'tmoqchimiz.

**“Gugurtga yozilgan she'r”**

Ha, mug'ambir,  
Ishqasam –  
Darrov yonasan.  
O't qo'ygan men emas, deb  
Keyin tonasan.” [4]

Bolalar yozuvchilari hamisha, hamm yerda bitta muhim qonuniyatga amal qilganlar: yashamoq – ulug' ne'mat. Yashash baxti hammaga ham nasib etavermaydi. Yashayotgan har bir jonzot Yaratganning ro'yxatidan o'tgan. Odamlar jonzotni oyoq osti qilishga, qirishga haqsizdir. Anvar Obidjon ham mittigina hasharot bo'ladimi? Oddiy keraksizdek tuyulgan buyum, uning tilidan bolaga so'zlaydi. O'z qadri haqida gapiradi. Anvar Obidjon O'z qahramonlarini ko'rsatadi, tasvirlaydi, zinhor ularga baho bermaydi. Yosh kitobxonni o'ylashga, baholashga o'rgatish bolalar adabiyotining vazifasi.

Anvar Obidjon bolalar uchun nimaiki yozmasin, go'zallikni, kuyni, shakl va mundarija mutanosibligini nazarda tutadi. Bola vazni yengil, bo'g'ini qisqa-qisqa misrali she'rlarni yoqtiradi, ularni zunda yod oladi. Shuning uchun ham Anvar Obidjon bolalarga atab qisqa satrlardan iborat, ravon o'qiladigan she'rlar yozadi.

“Donalarim  
Marjoncha  
Bir boshim –  
Naq bir jomcha.  
Quritsangiz  
Mayizman  
Dasturxonga  
Fayzman  
Kuzda  
Yeb-yeb to'yishar  
Qishda  
Osib qo'yishar.  
Boqar  
Yosh-qarilar  
Maqtar hatto

Arilar.” [4]

“Uzum” deb nomlangan ushbu she’r ham huddi shunday bola tiliga mos juda ham sodda yozilgan.

Adabiy asar ravon o‘qildimi, shavq-zavq beradimi, bilingki, uni yozish murakkab kechgan: san’atkor har bir so‘z, ohang, urg‘u ustida o‘ylagan. Anvar Obidjon bolalarga ana shunday asarlardan sanasa barmoqlar yetmaydigan darajada ko‘p va ho‘p yaratgan. “ “Ona yer”, “Bahromning hikoyalari”, “Ey, yorug‘ dunyo”, “Olovjon va uning do‘stlari”, Masxaraboz bola”, “Alisher va Husayn yoki uch don ova o‘g‘ri”, “Bulbulning cho‘pchaklari”, “O‘g‘irlangan pahlavon”, “Qorin botir” kabi ko‘plab hikoya, qissa va she’lar to‘plamlari mavjuddir.” [5. 286-289b] Keltirganlarimiz Anvar Obidjon asarlarining bir qismigina xolos. Ularning qay biri ochib o‘qilmasin 7 yoshdan 70 yoshgacha kitobxonni o‘ziga bog‘lab oladi.

Anvar Obidjon hayotda bosiq, mulohazakor, mustahkam, kata oila tayanchi, jamoat yumushini sitqi dildan bajarib e’tibor topgan, ota-ona duosini olgan insondir. U volidasiga atab “Onamning mamlakati” essesini yozgan. Bu asar onani ulug‘lovchi romanga o‘xshaydi.

Anvar Obidjon mag‘zi to‘q el orasida ulg‘aygan fikrni, hazil-mutoyibaga qo‘shib, kulib, kuldirib gapiradigan odam. Anvar Obidjon she’riyatda, nasrda birday qalam tebratdi. She’r yozdi, g‘azal bitdi, hikoya, qissalar yaratdi. Garchi uni bolalar yozuvchisi deb atasakda, allaqachon bolalar va kattalar o‘rtasidagi chegarani buzib o‘tgan adibdir.

**Xulosa** o‘rnida shuni aytish joizki, Anvar Obidjon haqiqatda qalami o‘tkir adib edi. Uning yozganlarini o‘qigan bolada tabiatga, butun mavjudotga o‘zgacha qarash shakllanadi. U dunyoni taniy boshlaydi. Undan hayratlanishni o‘rganadi. Bola qalbida yaratganga muhabbatpaydo bo‘ladi, hayotga, kelajakka bo‘lgan maqsadi paydo bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Обиджон А. Оловжон ва унинг дўстлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983.
2. Обиджон А. Аканг қарағай Гулмат. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987.
3. Обиджон А. Ерликлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990.
4. Обиджон А. Жуда қизиқ воқеа. – Тошкент: Юлдузча, 1987.
5. Rasulov A. O‘zlik sari yo‘l. Toshkent: ADIB, 2012.
6. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.